

O'ZBEKISTONNING BMT DOIRASIDAGI FAOLIYATI VA XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI

U.A.Sattorov

Oriental universiteti o'qituvchisi,

Bo'stonboyeva Mubina

Oriental universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) doirasidagi faoliyati hamda xalqaro hamkorlik tajribasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda mamlakatimizning mustaqillikka erishganidan so'ng BMT bilan o'rnatgan munosabatlari, tashkilotning asosiy tuzilmalari va ixtisoslashgan muassasalari bilan hamkorlik yo'nalishlari yoritib beriladi. Shuningdek, O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan xalqaro tashabbuslar, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, ekologik muammolarni hal etish borasidagi sa'y-harakatlarga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotda O'zbekistonning xalqaro nufuzini oshirish, global muammolar yechimiga hissa qo'shish va ko'p tomonlama diplomatiyani rivojlantirishdagi tajribasi yoritiladi. Mazuni tadqiq etishda sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy adabiyotlar va davriy matbuot materiallaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, BMT, YUNESKO, YUNISEF, Bosh Assambleya, xalqaro hamkorlik, barqaror rivojlanish, ta'lim, madaniyat, turizm, ekologiya.

Annotation. This article analyzes the activities of the Republic of Uzbekistan within the framework of the United Nations (UN) and examines its experience in international cooperation. The study explores the relations established between Uzbekistan and the United Nations following the country's independence, as well as the main areas of cooperation with the UN's principal bodies and specialized agencies. Particular attention is paid to the international initiatives put forward by Uzbekistan, its efforts to ensure regional security, achieve the Sustainable Development Goals, and address environmental challenges. The research also highlights Uzbekistan's experience in enhancing its international standing, contributing to solutions to global issues, and promoting multilateral diplomacy. The study is based on an analysis of relevant legal and regulatory documents, reports of international organizations, scholarly literature, and materials from periodical publications.

Keywords: Uzbekistan, United Nations (UN), UNESCO, UNICEF, General Assembly, international cooperation, sustainable development, education, culture, tourism, ecology.

O'zbekistonning istiqloлга erishishi ichki va tashqi munosabatlarda suveren mamlakat sifatida faoliyat olib borishga yo'l ochdi. Respublikamizning dunyodagi eng yirik xalqaro tashkilot hisoblanmish Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lishi mustaqillikning dastlabki yillaridayoq respublikamizga xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida faoliyat olib borish imkoniyatini berdi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq

muhim tashqi siyosiy masalalarni hal etish, davlatlararo siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diplomatik munosabatlar tashqi siyosatimizda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mamlakatimizning qulay geografik joylashuvi, uning chuqur o'ylangan, mustaqil va izchil tashqi siyosati, avvalo, o'z milliy manfaatlarini to'g'ri hisobga olgan holda olib borilayotgani ham, davlatimizning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishini, jahon miqyosida obro'-e'tibori va nufuzining muttasil oshib borishini ta'minladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda uning ixtisoslashgan muassasalari jumladan, YUNESKO bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlamoqda.

Respublikamiz jahon maydonida bugun mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etish, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish, shuningdek, atrof-muhit asrab-avaylash kabi masalalarga jahon ommasi e'tiborini qaratib, dunyo hamjamiyati oldida turgan boshqa dolzarb masalalarni hal etishga salmoqli hissa qo'shmoqda. O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasidagi ustuvor yo'nalishlari dastlab xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi kurashish, barqaror rivojlanishga ko'maklashish, ekologik muammolarni hal etishga qaratildi. Global ekologik ofatga aylangan Orol dengizi inqiroziga alohida e'tibor qaratildi.

1992-yil 2-martda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'ldi⁵⁸. Ushbu tarixiy qadam mamlakatimiz tashqi siyosatida tarixiy burilish yasadi. Yosh mustaqil respublikaning jahon hamjamiyati tomonidan rasman tan olinganligini, jahon siyosiy jarayonlarining to'laqonli ishtirokchisiga aylanganligini anglatar edi.

1993-yil 24-oktyabrda Toshkentda Xolid Malik boshchiligidagi BMTning vakolatxonasi ish boshladi⁵⁹. Vakolatxona O'zbekistondagi BMT tizimining faoliyatini muvofiqlashtiradi. 1994-yili New-York shahrida O'zbekiston Respublikasining BMTdagi domi vakolatxonasi tashkil etildi⁶⁰.

O'tgan davr davomida O'zbekiston Respublikasi davlat rahbarlari tomonidan BMT Bosh Assambleyasi qator sessiyalarida mintaqaviy xavfsizlik, barqaror rivojlanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, xususan, Orolbo'yi mintaqasi bilan bog'liq masalalar, diniy bag'rikenglik va yoshlar siyosati bo'yicha muhim tashabbuslar ilgari so'rildi. Respublikamiz tomonidan ilgari surilgan takliflar xalqaro miqyosda keng qo'llab-quvvatlanib, global kun tartibining muhim qismiga aylandi. Respublikamizning mazkur xalqaro tashkilotdagi ishtiroki O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, uning suverenitetini xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlash, barcha mamlakatlar bilan teng huquqli muloqot uchun zamin yaratishda muhim ahamiyat kasb etdi.

1993-yilda Toshkentda BMT vakolatxonasining ochilishi ushbu hamkorlikning uzoq muddatli va tizimli xususiyatini yana bir bor tasdiqladi. O'zbekiston Prezidentining muhim takliflarini inobatga olgan holda, bu nufuzli tashkilot 1993-yilda Toshkentda o'z

⁵⁸ Mustaqil O'zbekiston, seni tanidi jahon // Xalq so'zi, 1992-yil 4-mart

⁵⁹ O'zbekistonda BMT vakolatxonasi ochildi // Xalq so'zi. 1993-yil 26-oktyabr

⁶⁰ Абдимўминов О. Марказий Осиё ва Бирлашган Миллатлар Ташкилоти. Монография. – Тошкент. “Академнашр”. 2025. – Б. 71.

vakolatxonasini ochdi va o'z faoliyatini boshladi. Ushbu vakolatxona O'zbekistondagi BMT tizimining ixtisoslashgan tashkilotlari va dasturlari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

BMT O'zbekistonga O'rta Osiyodagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatlardan barqaror rivojlanib borayotgan, jahon siyosatida o'z o'rnini va nufuziga ega mamlakat sifatida qarab, respublikamiz bilan ko'p tomonlama hamkorlik qilishdan manfaatdor. BMT Bosh kotiblari bir necha bor yurtimizda bo'lib, hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashga harakat qildilar. Jumladan BMT Bosh kotiblaridan, 2002-yilda Kofi Annan, 2010-yil va 2015-yillarda Pan Gi Mun, 2017-yilda Antoniu Guterrish mamlakatimizga tashrif buyurdi⁶¹.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 1993-yilda 48 chi, 1995-yilda 50 chi, 2000-yilda 55 chi, 2010-yilda 65-sessiyalarida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etish, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish, shuningdek, atrof-muhit asrab-avaylash kabi masalalarga jahon ommasi e'tiborini qaratib, dunyo hamjamiyati oldida turgan boshqa dolzarb masalalarni hal etish kerakligini ta'kidlab o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida nutq so'zladi. Jumladan, 2017-yilda 72 chi, 2020-yilda 75 chi, 2023-yilda 78 chi 2025-yilda 80 chi sessiyalaridagi nutqlarida mintaqaviy xavfsizlik, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, inson huquqlarini himoya qilish kabi qator tashabbuslarni ilgari so'rdi.

2018-yildan 2025-yilgacha O'zbekiston BMT Bosh Assambleyasining 13 ta rezolyutsiya tashabbuskori bo'ldi. "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash"(2018-yil), "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida" (2021-yil), "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida" (2022) va "O'rmonlarni o'stirish va qayta tiklash bo'yicha harakatlar o'n yilligi"(2025)⁶² rezolyutsiyalari shular jumlasidandir.

Bugungi kunda O'zbekiston BMTning xalqaro huquqni hurmat qilish, tinchlik va o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyillariga amal qilgan holda faol tashqi siyosat olib borishda davom etmoqda va o'zini jahon hamjamiyatining mas'uliyatli va tashabbuskor a'zosi sifatida namoyon etmoqda. Shuningdek, mamlakatimiz tashkilot ixtisoslashgan muassasalari bilan ham faol hamkorlik aloqalarini olib bormoqda. Jumladan, 2025-yil

⁶¹ Раҳимов М., Абдимўминов О. Ўзбекистон ва БМТ муносабатлар тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари. Монография. – Тошкент. "Ҳамкорнашр". 2021. – Б. 116.

⁶² 2018-yildan 2025-yilgacha O'zbekiston BMT Bosh Assambleyasining 13 ta rezolyutsiyasi tashabbuskori bo'ldi // <https://dunyo.info/uz/mir-ob-uzbekistane/Ammon-News-gazetasi-2018-yildan-2025-yilgacha-Ўzbekiston-bmt-bosh-assambleyasining-13-ta-rezolyuciyasi-tashabbuskori-byldi>

oktyabr-noyabr oylarida Samarqand shahrida YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o'tkazildi. Bu kabi tadbir Markaziy Osiyoda bo'lib o'tgan birinchi yirik anjuman hisoblanadi. O'zbekiston YUNESKOga 1993-yil 26-oktyabr kuni a'zo bo'ldi. Tashkilot bilan hamkorlikda yurtimizda ko'plab sohalarda jumladan, fan, ta'lim va madaniyat sohalarda faol hamkorlik aloqalari yo'lga quyilgan. Madaniyat sohasidagi hamkorlik aloqalari natijasida tarixiy shaharlarimiz va tarixiy shaxslar yubiley sanalari tashkilot bilan hamkorlikda xalqaro miqyosda nishonlanib, qator musiqa festivallari o'tkazib kelinmoqda, YUNESKOning qator dastur va loyihalarida respublikamiz ishtirok etib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Samarali sheriklik davrida to'plangan bebaho tajriba hamkorlik ko'lamini kengaytirish, nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda barqarorlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida birgalikdagi sa'y-harakatlarning yangi yo'nalishlarini belgilab olish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mustaqil O'zbekiston, seni tanidi jahon // Xalq so'zi, 1992-yil 4-mart
2. O'zbekistonda BMT vakolatxonasi ochildi // Xalq so'zi. 1993-yil 26-oktyabr
3. Абдимўминов О. Марказий Осиё ва Бирлашган Миллатлар Ташкилоти. Монография. – Тошкент. “Академнашр”. 2025.
4. Раҳимов М., Абдимўминов О. Ўзбекистон ва БМТ муносабатлар тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари. Монография. – Тошкент. “Ҳамкорнашр”. 2021.
5. 2018-yildan 2025-yilgacha O'zbekiston BMT Bosh Assambleyasining 13 ta rezolyutsiyasi tashabbuskori bo'ldi // www.dunyo.info/uz/mir-ob-uzbekistane/“Ammon-News”-gazetasi-2018-yildan-2025-yilgacha-Ўzbekiston-bmt-bosh-assambleyasining-13-ta-rezolyuciyesi-tashabbuskori-byldi